

## O'qtish turlari

**An'anaviy ta'lim** – O'qituvchi markazda bo'lib, darslikka asoslangan, klassik usullarda olib boriladigan ta'lim.

**Noan'anaviy ta'lim** – Yangicha, zamonaviy texnologiyalar va usullarga asoslangan, ijodiy yondashuv talab qiladigan ta'lim.

**Rivojlantiruvchi ta'lim** – O'quvchilarning tafakkuri, mustaqil fikrlashi va shaxsiy rivojiga yo'naltirilgan ta'lim.

**Muammoli ta'lim** – O'quvchilar oldiga masala yoki muammo qo'yilib, ularni hal qilish orqali bilim beriladigan ta'lim.

**Dasturlashtirilgan ta'lim** – Maxsus tuzilgan dastur asosida, bosqichma-bosqich o'rgatiladigan, ko'pincha avtomatlashtirilgan shakldagi ta'lim.

**Evristik ta'lim** – O'quvchilarning mustaqil izlanishlari, kashfiyotlari orqali bilim olishiga yo'naltirilgan ta'lim.

**Turli darajali ta'lim** – O'quvchilarning bilim va qobiliyat darajalariga moslab tashkil etiladigan ta'lim.

**Modul tizimli ta'lim** – Har bir mavzu yoki bo'lim alohida modul tarzida beriladigan, mustaqil o'zlashtirishga imkon beradigan ta'lim.

**Interfaol ta'lim** – O'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi faol muloqotga asoslangan, ishtirok orqali o'rgatuvchi ta'lim.

**Masofali ta'lim** – Internet va boshqa aloqa vositalari orqali, masofadan turib bilim olish imkonini beruvchi ta'lim.

**Andragogika** – Kattalar (yoshdan o'tganlar) ta'limi bilan shug'ullanuvchi ta'lim sohasi.

**Informal ta'lim** – Kundalik hayotda, ish jarayonida yoki o'z-o'zini rivojlantirish orqali olinadigan norasmiy ta'lim.

**Rasmiy ta'lim** – Davlat yoki rasmiy muassasalar tomonidan beriladigan, diplom yoki sertifikat bilan tasdiqlanadigan ta'lim.

**Norasmiy ta'lim** – Kurslar, to'garaklar yoki seminarlar orqali olinadigan, lekin diplom talab qilinmaydigan ta'lim shakli.



## Noan'anaviy ta'lim

O'qituvchi va o'quvchining hamkorlikdagi faoliyatiga o'quv va tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish uchun yangi usullarni ishlab chiqish bo'yicha tajribaga asoslanadi



## Aralash ta'lim bu

Onlayn ta'limning yuzma-yuz ta'lim bilan uyg'unligi, an'anaviy shakllarning elektron texnologiyalar bilan integratsiyasidir.



## Integratsiyalangan ta'lim

Bu turli xil ehtiyojlari, qobiliyatlari yoki xususiyatlari bo'lgan o'quvchilarni birga o'qitish konsepsiyasidir.



## Muammoli ta'lim

O'quvchi ilmiy qarama-qarshiliklarga duch keladigan va ularni mustaqil ravishda hal qilishga harakat qiladigan o'rganish usuli.



### Innovatsion ta'lim

Ta'limga yangi yondashuvlar, fundamental ta'lim, ijodkorlik, proffesional va eng zamonaviy texnologiyalardan foydalanish.



### Inklyuziv ta'lim

O'quvchilarning imkoniyatlari, individual-psixologik, jismoniy nuqson va o'zlashtirish xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etiladigan ta'lim jarayonidir



## Onlayn ta'lim

Texnika vositalaridan foydalanish orqali bilim va malakalarni egallash shakli. Bu kompyuter yoki mobil qurilma orqali o'qishdir.



## Rivojlantiruvchi ta'lim

O'quvchilar shaxsiyatini rivojlantirishning ichki mexanizmlarini o'z ichiga olgan va ularning intellektual hamda jodiy qobiliyatlarini to'liq oshirishga yordam beradigan ta'lim tizimi



## Modul tizimli ta'lim

Har bir fan alohida yoki oralig'ida o'qitish formati



## Masofaviy ta'lim

O'quvchilar tomonidan o'quv materiallarini masofadan o'rganish, ularning bilimlarini sinab ko'rish va o'qituvchilar bilan aloqa qilish uchun internet va zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni o'z ichiga olgan ta'lim shakli



## Evristik ta'lim

O'quvchi tomonidan ta'lim maqsadlari va mazmunini loyihalash, shuningdek, uni tashkil etishni maqsad qilgan ta'lim turi, kashfiyot, yangilik yaratish



## An'anaviy ta'lim

O'qituvchi o'quv jarayonida yagona faol shaxs bo'lib, o'zlashtirish uchun mo'ljallangan bilimlarni tayyor shaklida o'quvchilarga yetkazishga qaratilgan ta'lim tizimi



## Interfaol ta'lim

• Nafaqat o'qituvchi balki o'quvchi ham faol, guruhlararo yoki alohida o'quvchilar orasidagi hamkorlik



## Androgogika

Ta'lim nazariyasi o'quv faoliyatining kattalar sub'yekti tomonidan bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishning o'ziga xos qonuniyatlarini ochib beradigan bo'limi